

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 25.09.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 7,5 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 140.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 140.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgohk street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 25.09.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p.7,5. Unit: 100.

Order: 140.

Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Xalqaro xususiy huquqda majburiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
- 15 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Tibbiy tashxisda sun'iy intellekt va bemor huquqlarini himoya qilish munosabatlarining huquqiy arxitekturasini

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtirokining protsessual jihatlari
- 31 **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**
O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida subsidiar javobgarlik masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Markaziy Osiyoda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 47 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyati obyektiv tomonining ilmiy-nazariy jihatlari
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: ularni o'zaro farqlash masalalari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Совершенствование правового регулирования обязательственных отношений в международном частном праве

15 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Правовая архитектура взаимосвязи искусственного интеллекта и защиты прав пациентов при медицинской диагностике

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

22 **ПИРМАТОВ ОТАБЕК ШАВКАТОВИЧ**

Процессуальные аспекты участия адвокатов в гражданском судопроизводстве

31 **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Вопросы субсидиарной ответственности в гражданском праве Республики Узбекистан

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

39 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**

Правовые вопросы использования возобновляемых источников энергии в Центральной Азии

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

47 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Научно-теоретические аспекты объективной стороны преступления аборта в уголовном процессе

55 **ЕРМАШЕВ ДЖЕНГИС МАРАТОВИЧ**

Квалификация преступлений в таможенной сфере: вопросы их взаимной дифференциации

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Improving the legal regulation of obligation relations in international private law
- 15 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Legal architecture of the relationship between artificial intelligence and the protection of patients' rights in medical diagnostics

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW.
ARBITRATION AND MEDIATION.

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Procedural aspects of lawyers' participation in civil proceedings
- 31 **KHURSANOV RUSTAM KHOLMURATOVICH**
Issues of subsidiary liability in the civil law of the Republic of Uzbekistan

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Legal issues of the use of renewable energy sources in Central Asia

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 47 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAEVICH**
Scientific and theoretical aspects of the objective side of the crime of abortion in the criminal process
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Qualification of crimes in the customs field: issues of their mutual differentiation

Kelib tushgan / Получено / Received: 25.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 14.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.3./WNWN7800

UDC: 347.965(045)(575.1)

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA ADVOKAT ISHTIROKINING PROTSESSUAL JIHATLARI

Pirmatov Otabek Shavkatovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va
iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasini professor v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)
ORCID: 0000-0002-0774-661
e-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik instituti hamda advokatning tutgan o'рни yoritilgan. Vakillikning qonuniy vakillik, shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik, yuridik shaxs vakilligi, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari vakilligining o'ziga xosligi bayon etilgan. Shunday qilib, advokatda da'vogar va javobgarining maxsus huquqlari: da'vo talablaridan butunlay yoki qisman voz kechish, da'vo asosi yoki predmetini o'zgartirish, da'vo miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogar talablarini tan olish, kelishuv bitimi tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish, ijro varaqasini undiruvga qaratish, undirilgan mol-mulk yoki pulni olish huquqi bor – maqolada ularning aniq tartibi yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanishi to'g'risida"gi qarorida keltirilgan advokatlarning qonunda belgilangan maxsus vakolatlarni amalga oshirish tartibi tahlil qilinadi. Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi protsessual qonunchiligida ma'lumotlarning maxfiyligi qoidalari bo'lgan Dyusseldorf va Myunxen amaliyoti kabi xorij tajribasi ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: advokat, vakillik, fuqarolik sud ishlari, yuridik vakillik, shartnomaviy (ixtiyoriy) vakillik, vakolatlar, ishonchnoma.

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ УЧАСТИЯ АДВОКАТОВ В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Пирматов Отабек Шавкатович,
доктор юридических наук (DSc),
и. о. профессора кафедры «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье освещается роль института представительства и адвоката в гражданском судопроизводстве в нашей стране. Излагается специфика юридического представительства, договорного (добровольного) представительства,

представительства юридического лица, представительства профсоюзов и других общественных организаций. Кроме того, адвокат имеет специальные права истца и ответчика: полностью или частично отказаться от исковых требований, изменить основание или предмет иска, увеличить или уменьшить сумму иска, признать требования истца, заключить мировое соглашение, передать полномочия другому лицу (доверить другому лицу), обжаловать решение (определение) суда об урегулировании, оформить исполнительный лист, ориентируясь на взыскание, изъятие взысканного имущества или денег – в статье раскрывается их конкретный порядок. В статье анализируется порядок осуществления адвокатами установленных законом специальных полномочий, изложенных в постановлении Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «О применении судами норм гражданского процессуального законодательства о представительстве». Также изучен зарубежный опыт ФРГ, в частности практика Дюссельдорфа и Мюнхена, где процессуальное законодательство содержит правила конфиденциальности информации.

Ключевые слова: адвокат, представительство, гражданские судебные дела, юридическое представительство, договорное (добровольное) полномочия, доверенность.

PROCEDURAL ASPECTS OF LAWYERS' PARTICIPATION IN CIVIL PROCEEDINGS

Pirmatov Otabek Shavkatovich,

Acting Professor of the Department of
Civil Procedural and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law (DSc)

Abstract. This article highlights the role of the representative institution and the lawyer in civil proceedings in our country. The specifics of representation are described in terms of legal representation, contractual (voluntary) representation, representation of legal entities, representation of trade unions, and other public organizations. Thus, the lawyer has special rights of the plaintiff and the defendant: full or partial waiver of claims, change the basis or subject of the claim, increase or decrease the amount of the claim, recognition of the plaintiff's claims, the conclusion of a settlement agreement. contract, to transfer authority to another person (entrust another person), to have the right to file an appeal against the decision (judgment) of the court, to issue a writ of execution for recovery, to receive the recovered property or money—the exact order of these actions is described in the article. The article analyzes the procedure for exercising the special powers of lawyers, provided by the decision of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan “On the application of the rules of civil procedural legislation on representation in courts.” Also, foreign experience, such as the practice of Düsseldorf and Munich, which are the rules of confidentiality of information in the procedural legislation of the Federal Republic of Germany, has been studied.

Keywords: lawyer, representation, civil cases, legal representation, contractual (voluntary) representation, powers, power of attorney.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

So'nggi vaqtlarda yurtimizda advokatura sohasida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, advokaturaga doir quyidagi ayrim to'siqlar olib tashlandi:

- advokat maqomini olish uchun ikki yillik yuridik staj talab etilishi bekor qilindi;
- advokat maqomini olish uchun stajirovka o'tash talablari yengillashtirildi, bunda or-

tiqcha hujjatlar talab etilishi, stajirovka davrida referat va ortiqcha hisobotlar topshirish talablari chiqarib tashlandi;

– o’rindoshlik asosida ham advokat stajyori bo’lib ishlashga ruxsat berildi;

– talabgorlarga advokat maqomini olish bo’yicha malaka imtihoniga hujjat topshirishning elektron tartibi, imtihon o’tkaziladigan sana, vaqt va joy haqidagi ma’lumotlar elektron shaklda uning shaxsiy kabinetiga yuborilishi yo’lga qo’yildi;

– advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqi uchun litsenziya berish “Litsenziya” axborot tizimi orqali amalga oshirilishi belgilandi, bunda litsenziya berish jarayonida inson omili mavjud emas, agar talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan va davlat boji to’lovlarini amalga oshirgan bo’lsa, tizim avtomatik tarzda litsenziya beradi;

– advokatlik tuzilmalarini davlat ro’yxatidan o’tkazish, qayta ro’yxatdan o’tkazish va tugatish “yagona darcha” tamoyili asosida faqat elektron tarzda amalga oshiriladigan bo’ldi;

– advokatlik guvohnomasi QR-kod qo’yilgan, maxsus himoya qatlamiga ega ID-karta shaklida berilishi belgilandi va advokatlarining guvohnomalari yangi namunadagi guvohnomalarga almashtirildi.

Fuqarolar buzilgan huquq va manfaatlarini fuqarolik ishlari bo’yicha sudlarda shaxsan yoki o’zlarining vakili orqali himoya qilish imkoniyatiga ega.

Ba’zi hollarda fuqarolar (chet el fuqarosi, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar) fuqarolik ishlari bo’yicha sud majlisida shaxsan ishtirok eta olmaydi yoki qatnashishni istamaydi. Fuqaroning sud majlislarida ishtirok etishiga to’sqinlik qiladigan haqiqiy holatlar (kasallik, xizmat safari, harbiy xizmat va boshqalar) mavjudligi yoki huquqiy savodxonlikning yetarli darajada emasligi sababli fuqaro (chet el fuqarosi, fuqaroligi bo’lmagan shaxs) malakali yuridik yordamga muhtoj bo’lishi mumkin. Shuningdek, yuridik shaxs manfaatlarini sud jarayonida uning vakili himoya qiladi. Yuridik

shaxs tugatilayotganda, tugatish boshqaruvchisi tugatilayotgan yuridik shaxsning vakili sifatida ishtirok etadi.

Fuqarolik protsessida vakillik bir shaxsning (vakil) unga berilgan vakolatlar doirasida boshqa shaxsning (vakolat bergan shaxs) nomidan va manfaatlaridan kelib chiqib protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik protsessida vakillikning maqsadi shaxsga uning subyektiv huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda muayyan yuridik yordam ko’rsatish, shuningdek, fuqarolik sud ishi bo’yicha dalillar yig’ish, sudga taqdim qilish hamda qonuniy va asosli sud qarori qabul qilishda yordam berishdir.

Vakillik muomala layoqati cheklangan, muomalaga layoqatsiz, bedarak yo’qolgan deb topilgan fuqarolar nomidan ham amalga oshiriladi.

Fuqaroning to’liq muomala layoqatiga ega emasligi, muomala layoqati cheklangan shaxs bilan vakil o’rtasida ma’lum darajadagi qarindoshlik munosabati yoki bunday fuqaroga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlanishi, fuqaroni bedarak yo’qolgan deb topish va uning mol-mulkinging vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan shaxsga ishonchli boshqaruvga berilganligi natijasida ham fuqarolik sud ishlarida vakillikka yo’l qo’yiladi.

Ilmiy adabiyotlarda vakillik institutiining turli asoslarga ko’ra tasniflari mavjud. O’zining eng umumiy shaklida vakillik ixtiyoriy (shartnomaviy) va qonuniy vakillik kabi turlarga bo’linadi. Ushbu tasnif vakolat beruvchi va vakil o’rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko’ra tasniflangan.

Huquqshunos olim Sh. Shoraxmetov sud-dagi vakillikni quyidagi turlarga ajratadi: qonuniy vakillik; ixtiyoriy (shartnomali) vakillik; kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari; yuridik shaxslar vakilligi va ustavli vakillik [1; 135-b.]

Yana bir protsessualist olim M. Mamasiddiqovning fikricha, vakillikni turlarga bo’lishda ularning bir-biridan nafaqat vujudga kelish asoslari bo’yicha, balki vakillik

qilishning maqsadlari, vakil bo'la oladigan shaxslar doirasi, vakil vakolatlarining xarakteri va ularni tasdiqlash shaklidagi farqlar ham e'tiborga olinadi.

Sudda vakillik qilish turlari quyidagilarga ajratiladi [2]:

- qonuniy vakillik;
- shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik;
- yuridik shaxs vakilligi;
- kasaba uyushmalari va boshqa jamoat

tashkilotlari vakilligi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 66-moddasi qonuniy vakillikka bag'ishlangan. Odatda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka olgan shaxslar, vasiylar, homiylar, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini qo'riqlash va boshqarish uchun tayinlangan shaxslar, meros mol-mulknini saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqlovchi shaxslar ishtirok etadi.

Vafot etgan yoki sud tartibida vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning merosxo'ri ishtirok etishi kerak bo'lgan ish bo'yicha, agar merosni hali hech kim qabul qilib olmagan bo'lsa, vasiy, homiy yoxud meros mol-mulknini saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqlovchi shaxs merosxo'rning vakili sifatida fuqarolik sud ishlarida qatnashadi.

Fuqarolik sud ishlarida vakillar ishni yuritish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vakolatlariga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin.

Prokuror, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ham fuqarolik ishini boshlash, davom ettirish huquqiga ega. Lekin biz ularni taraflarning vakili deb atay olmaymiz [3].

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, advokatlar fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflar, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning shartnomaviy vakili sifatida ishtirok etadi. O'zbekiston

Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasida ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkin:

1) advokatlar;

2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tushgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek, er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;

3) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;

4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;

5) qonunga binoan, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;

6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

7) ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishga yo'l qo'yilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkinligi belgilangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokatlar taraflarning shartnomaviy vakili sifatida sudda ishtirok etadi.

Material va metodlar

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Huquqshunos olim M. Mamasiddiqov fikricha, sudda shartnoma bo'yicha vakil sifatida ko'pincha advokatlar qatnashmoqda. Chunki fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilish, ular-

ga malakali yuridik yordam ko’rsatishda shartnoma bo’yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokat ishtiroki muhim o’rin egallaydi. Shartnoma bo’yicha (ixtiyoriy) vakillikning ushbu turi yuzaga kelishi uchun asos vakil bilan ishonch bildiruvchi shaxs o’rtasida tuzilgan bitimdir [4; 198-b.]

Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo’lib, u advokatga yuridik yordam so’rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudga himoya qilish huquqini beradi.

Rus huquqshunosi D.M. Chechot fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokatning vakil sifatidagi ishtiroki uning fuqarolik sud ishlarini boshlash, da’vo asosini o’zgartirish yoki tan olish bilan odil sudlovga ta’sir ko’rsatadi, deb hisoblaydi [5].

V.N. Sheglov ham advokatning fuqarolik protsessidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi haqida so’z yuritib, advokat fuqarolik sud ishlarini boshlashi, uni tugatishi (da’vodan voz kechish) mumkinligi to’g’risida o’z fikrini bildirib o’tgan [6].

M.K. Treushnikova sud ishlarini yuritish ishtirokchisi fuqarolik protsessiga ta’sir o’tkaza olishi, ma’lum bir protsessual huquqlar hamda majburiyatlarga ega bo’lishi shart ekanligini bayon qilib, advokatni fuqarolik protsessida vakil sifatida baholaydi [7].

A.F. Kozlovning fikriga ko’ra, advokat va boshqa vakillar fuqarolik va iqtisodiy protsess dalillarini isbotlash bo’yicha huquqqa ham, majburiyatga ham ega emas. Ular vakolat bergan shaxsning topshirig’iga asosan protsessda harakatlanadi [8].

Ba’zi bir olimlar advokatni odil sudlovni amalga oshirishga ko’maklashuvchi shaxs deb hisoblaydi. Xususan, huquqshunos olim M.S. Shakaryanning fikriga ko’ra, advokat fuqarolik sud ishlarini boshlashi, davom ettirishi va tugatishi mumkin. Ushbu huquqlar protsessdagi eng muhim huquqlar hisoblanadi. Biroq ushbu huquqlardan advokat mustaqil ravishda foydalana olmaydi. Bu huquqlarning

barchasi unga vakolat bergan shaxsga tegishli. U sudga vakil yoki taraflar birgalikda ishtirok etishidan qat’i nazar, boshqa shaxsning huquq va manfaatlarini ko’zlab ish ko’radi [9]. M.S. Shakaryan advokat taraflarga tegishli bo’lgan huquqlardan mustaqil o’zi (taraf unga vakolat bermaguncha fuqarolik ishiga kirib kelolmaydi) foydalana olmagani uchun uni odil sudlovga ko’maklashuvchi shaxs deb hisoblaydi.

M.A. Vikut fikriga ko’ra, fuqarolik protsessida taraflarning huquq va majburiyatlardan mustaqil ravishda foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sud ishtirokchilarining huquqiy maqomini belgilashga imkon beradi [10].

V.M. Sherstyukning ta’kidlashicha, fuqarolik protsessual munosabat ishtirokchilari sud ishini boshlash, davom ettirish hamda tugatishni o’zlari yoki vakillari orqali amalga oshirishi mumkin. Shu bois advokat da’vogar yoki javobgarining vakili bo’lishidan qat’i nazar, yuqorida ko’rsatilgan huquqlardan mustaqil ravishda foydalana olmaydi [11].

O’zbek huquqshunosi M. Doniyorov fikriga ko’ra, taraflar, vakillar, uchinchi shaxslar, prokuror ham protsessual munosabatlar subyektlari, ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi, chunki o’zining protsessual holatida ma’lum bir farqlar bilan ular protsessning vujudga kelishi, rivojlanishi, to’xtalishiga ta’sir qiluvchi protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Lekin vakillarning ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatidagi o’ziga xos xususiyatlari shundaki, advokat ishonch bildiruvchi nomidan va uning manfaatlarini himoya qilgan holda harakat qiladi; ishonch bildiruvchilar protsessual mustaqillikka ega bo’ladi, ammo shartnomali vakillar o’z ishonch bildiruvchilari uchun moddiy-huquqiy oqibatlar bilan protsessual harakatlarni maxsus vakolatlarsiz amalga oshira olmaydi. Demak, sudagi vakillar ham protsessual huquqiy munosabatlar subyekti, ham ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi [12].

Huquqshunos olim Sh. Shoraxmetov fikriga ko’ra, sud amaliyotida aksariyat hollar-

da advokatlar taraflarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Shu tufayli sud-da vakillik qilish uchun advokatni taklif etgan taraf uning xizmati uchun ma'lum xarajatlar sarflashiga to'g'ri keladi [1, 275-b].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanishi to'g'risida"gi qaroriga asosan, ayrim protsessual harakatlarni sodir etish uchun qonun maxsus vakolatlar mavjud bo'lishini talab etadi. Shartnoma bo'yicha vakil, shu jumladan, advokat va ishga sud majlisida ishonch bildiruvchining arizasiga binoan kirishgan shaxs ham bu harakatlarni faqat ulardan har biri qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnomada qayd etilgan holdagina sodir etishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan maxsus huquqlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- da'vo talablaridan butunlay yoki qisman voz kechish;
- da'vo asosi yoki predmetini o'zgartirish;
- da'vo miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish;
- da'vogar talablarini tan olish;
- kelishuv bitimi tuzish;
- vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish);
- sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish;
- ijro varaqasini undiruvga qaratish;
- undirilgan mol-mulk yoki pulni olish.

O'zbek huquqshunosi M. Mamasiddiqov advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi shartnomaga ham e'tibor qaratgan bo'lib, uning fikricha, advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi shartnomaning yana bir muhim sharti topshiriq predmetidir. Ya'ni topshiriqqa asosan, advokat qanday harakatlarni amalga oshirishi kerakligi ko'rsatiladi. Topshiriq predmetini nomoddiy xizmatlar tashkil etadi. Bunda yuridikiyordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimning (shartnomaning) ikki xususiyati haqida to'xtalib o'tish lozim.

Ushbu ikki xususiyat advokatning ishonch bildiruvchi shaxsga (himoya ostidagi shaxsga) yuridik yordam ko'rsatish turlaridan kelib chiqqan. Ya'ni advokat ishonch bildiruvchi shaxsga (himoya ostidagi shaxsga) fuqarolik, jinoyat, ma'muriy javobgarlikka oid ishlarda vakil bo'lib qatnashayotganda, yuqoridagi bitim topshiriq shartnomasi xususiyatiga ega bo'lsa, ikkinchi xususiyati haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi xususiyatidir, ya'ni haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida ijrochi (advokat) buyurtmachining (ishonch bildiruvchi shaxsning) topshirig'i bilan ash-yoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Bunda advokat tomonidan ko'rsatila-yotgan xizmatlar bevosita vakillik bilan bog'liq bo'lmaydi (misol uchun, yuridik maslahat berish, sudga topshiriladigan hujjat loyihasi-ni tayyorlab berish, huquqiy masalalar bo'yicha yozma xulosalar tayyorlash va hokazo) [4; 200-b.]

Yurtimizdagi "Inson qadri uchun" shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasidagi qonunchilik takomillashtirildi. Xususan, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi" qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunga asosan, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli bo'lgan quyidagi ishlarda ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatilishi belgilab berildi:

- ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash;
- ishga tiklash;
- ish haqini undirish;
- alimentlar undirish;
- uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish va ko'chirish;
- mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zarar o'rnini qoplash haqidagi ishlar.

D. Nurumovning fikricha, aksariyat fuqarolar bepul yuridik yordamning yuridik klinikalar va notijorat tashkilotlardan olinishi hamda bu xizmat sifatli bo’lishi mumkinligi haqida bilmaydi. Aholini xabardor qilish sohasida ushbu jiddiy muammolarni bartaraf etish uchun katta kuch sarflash kerak. Bepul yuridik yordamning nodavlat tizimini shakllantirish istiqbollari sari juda katta qadamlar tashlanayotgan bir paytda aholining xabardorlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi [13].

Faoliyati ustav bilan tartibga solinadigan yuridik shaxslar rahbarlari uchun ham maxsus vakolatlar borligi to’g’risida hujjat taqdim etilishi talab etiladi, basharti ustavda tegishli huquqlarni amalga oshirish korporativ boshqaruv organlari (umumiy yig’ilish yoki boshqaruv) vakolatiga tegishli bo’lsa. Yuqoridagi huquqlardan foydalanishda advokatlar sud jarayonida taraflar tomonidan ishonchnoma olishi zarur. Ular jismoniy shaxslarning vakili sifatida ishda ishtirok etib, da’vogar yoki javobgarning maxsus huquqlaridan notarial tasdiqlangan yoki ularga tenglashtirilgan ishonchnomalar orqali foydalanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Advokat tomonidan sudgacha ko’rsatiladigan yuridik yordam turlaridan biri og’zaki va yozma ravishda huquqiy masalalar bo’yicha maslahat va ma’lumot berishdir.

Advokat sudgacha bo’lgan qisqa vaqt ichida ishonch bildiruvchi bilan psixologik aloqa o’rnatish, uning da’volari, shikoyatlari, e’tirozlari mohiyatini tushunishi va ushbu tashxisga asosan, malakali yuridik yordam ko’rsatishi zarur.

Taraflarning talablari qonuniy ekanligiga ishonch hosil qilganidan so’ng advokat fuqarolik sud ishini yuritishni o’z zimmasiga oladi va sud jarayoniga tayyorgarlik ko’rish uchun quyidagi yuridik harakatlarni amalga oshiradi: taraf bilan suhbatlashish, uning niyati va talablarini aniqlashtirish, ishning holatini o’rganish, muammoga huquqiy baho berish, ruxsat etilgan ma’lumotlarni oshkor qilish

hamda nizoni hal qilishga olib boradigan usullar yordamida sudda ish yuritish taktikasini belgilash.

Subyektiv huquqlar va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishning protsessual vositasi – da’vo hisoblanib, da’vo – sudga yuborilgan odil sudlovni amalga oshirish to’g’risidagi talab, ya’ni uning mazmuni manfaatdor shaxsning (da’vogarning) huquqni buzuvchiga (javobgarga) qat’iyatli shaklda bildirgan talabidir.

Birinchi instansiya sudida qatnashish uchun advokat (vakil) sud muhokamasiga tayyorlanishi lozim va sudgacha quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishni to’g’ri hal qilish uchun muhim bo’lgan faktik holatlarni aniqlaydi;
- rioya qilinishi kerak bo’lgan qonunni belgilaydi va taraflar bilan huquqiy munosabatlarni o’rnatadi;
- fuqarolik ishiga boshqa ishtirokchilarni jalb qilish masalasini hal qiladi;
- fuqarolik ishi uchun zaruriy dalillar to’playdi;
- da’vogarning advokati javobgarga da’voning haqiqiy asoslarini tasdiqlovchi dalillar nusxalarini taqdim etadi;
- da’voni ta’minlash to’g’risida arizalar tayyorlaydi;
- sud yordamisiz, o’z-o’zidan ololmaydigan dalillarni olish to’g’risida sudyaga iltimosnomalar taqdim etadi;
- javobgarning advokati da’vogar talablari va ushbu talablarning haqiqiy asoslarini ko’rsatib beradi;
- da’vogar yoki uning vakiliga va sudga da’vo arizasi bo’yicha yozma ravishda e’tirozlar taqdim etadi;
- da’vogar yoki uning vakiliga va sudga da’vo arizasiga nisbatan e’tirozlarni tasdiqlovchi dalillar taqdim etadi;
- sudyadan sudning yordamisiz o’z-o’zidan ololmaydigan dalillarni olish bo’yicha iltimosnoma kiritadi.

Shuningdek, advokat davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, tashkilotlar va ja-

moat birlashmalaridan ma'lumotlar to'playdi, ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni talab qiladi; dalillarni ta'minlash choralari ko'radi; keyinchalik sud tomonidan ashyoviy va boshqa dalillar sifatida tan olinishi mumkin bo'lgan narsalar va hujjatlarni to'playdi; guvoh sifatida sudga kimni chaqirish kerakligini belgilaydi; ishda ishtirok etish uchun mutaxassislarni jalb qilish hamda ekspertizaga ehtiyoj bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

Fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlash paytida advokat ishonch bildiruvchiga fuqarolik ishini sudda ko'rib chiqish tartibi, ishonch bildiruvchining protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, sudda o'zini qanday tutishi, nimalar to'g'risida ko'rsatmalar berishi to'g'risida maslahat va tavsiyalar beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Germaniya Federativ Respublikasi protsessual qonunchiligida ma'lumotlarning maxfiyligi qoidalari mavjud bo'lib, ular Dyusseldorf va Myunxen amaliyoti deb nomlanadi. Dyusseldorf amaliyotiga ko'ra, taraflar ish materiallari bilan tanishish huquqidan voz kechishi mumkin. Unda dalil ta'minlanganda yoki axborot maxfiy bo'lganda ular bilan faqat taraflarning advokati tanishishi hamda uning mazmunini o'z mijozlariga ham oshkor qilmasligi belgilab qo'yilgan. Dyusseldorf amaliyotida advokat sud materiallarini tekshirishda ishtirok etishi, dalillarni ta'minlash choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi, dalillarning daxldorligiga aloqador nizolar bilan sudning hal qiluv qaroriga e'tiroz bildirishi mumkin.

Myunxen amaliyotida taraflar ish materiallari bilan tanishish huquqidan voz kechmasligi, dalillarni tekshirishda ishtirok etishi va ish bo'yicha yuzaga kelgan savollarga dalillar taqdim etishi mumkinligi belgilangan. Biroq Myunxen okrug sudi "know-how" ma'lumotiga ega bo'lgan qarshi tarafning arizasiga asosan, taraflarni ish materiallariga oid ekspert xulosasi, dalillar bilan ta'minlash choralari haqida xabardor qilmasligi mumkin [14].

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik

protsessual qonunchiligida ham taraflarning ish materiallari bilan tanishishini cheklaydigan normalar yo'q. Fuqarolik protsessual qonunchilikka asosan, dalillar bilan ta'minlashda arizachi va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar dalillarni ta'minlash vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmasligi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Demak, taraflar dalillarni ta'minlashda ishtirok etishi mumkin.

Odatda qonunchiligimizda maxfiy ma'lumotlarni sir saqlash ayrim shaxslar uchun majburiyat yuklaydi. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasiga asosan, advokatlar advokatlik sirini saqlashi, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni 6-moddasiga asosan, notariuslar notarial harakatlar maxfiyligini ta'minlashi shart. Biroq protsessual qonunchiligimizda tijorat siri, davlat siri, oilaviy sirlarni saqlash bo'yicha taraflarga majburiyat yuklanmagan. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasida "advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so'rab murojaat etganligining o'zi, mijoz yordam so'rab murojaat etgan masalalar, advokatdan mijoz olgan maslahatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning mijoz bilan o'tkazgan suhbatida to'xtab o'tilgan barcha masalalar kiradi", deb belgilangan. Mazkur moddaning mazmuni shuni ko'rsatadiki, qarshi tarafning ma'lumotlari (oilaviy sir, "know-how" va boshqalar) advokatlik siri sanalmaydi.

Bizning nazarimizda, protsessual qonunchiligimizda tijorat siri, davlat siri hamda oilaviy sirlar bo'yicha dalillar ta'minlanayotganda, ularning maxfiyligini ta'minlash choralari ko'rish lozim. Ayniqsa, elektron dalillar ta'minlanayotganda, bu muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflik huquqi bilan bog'liq iqtisodiy yoki fuqarolik ishlari ko'rilayotganda, elektron dalillar, ya'ni Internet sahifalari taraflar yoki manfaatdor shaxs tomonidan dalil sifatida taqdim qilinayotganda (Internetda

e’lon qilingan noqonuniy she’r, hikoya, roman, kinofilm, qo’shiq yoki veb-sayt dizaynining o’g’irlanishi va boshqalar), ularni ta’minlash choralari ko’rilguncha qarshi taraf tomonidan o’zgartirib qo’yilishi mumkin.

Mazkur amaliyotni fuqarolik qonunchiligi-mizga ham tatbiq qilishimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida dalillarni ta’minlash dalillarni to’plash va tekshirish qoidalari bo’yicha sud tomonidan amalga oshirilishi, arizachi

va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar dalillarni ta’minlash vaqti va joyi haqida xabardor qilinishi, biroq ularning kelmaganligi dalillarni ta’minlash haqidagi arizani ko’rib chiqishga to’sqinlik qilmasligi, ushbu kechiktirish, shuningdek, keyinchalik arizachi bilan kimning o’rtasida nizo kelib chiqishini aniqlash mumkin bo’lmagan hollarda, dalillarni ta’minlash faqat arizachining o’zini xabardor qilish yo’li bilan amalga oshirilishi belgilab qo’yilgan.

REFERENCES

1. Shoraxmetov Sh. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2010.
2. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism [Civil procedural law. General part]. Tashkent, 2012, p. 186.
3. Rakitina L.N. Predstavitel’s tvo v sude obshchey yurisdiksii po zayavleniyu doveritelya [Representation in a court of general jurisdiction at the request of the client]. *Legislation*, 2008, no. 10, pp. 82–85.
4. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, 2010, p. 198.
5. Chehot T.M. Uchastniki grazhdanskogo protsessa [Participants in civil proceedings]. Moscow, 2010.
6. Shcheglov V.N. Grazhdanskoye protsessualnoye pravootnosheniye [Civil procedural legal relationship]. Moscow, 2001.
7. Zhuykova V.M., Puchinskiy V.K., Treushnikova M.K. Nauchno-prakticheskiy kommentariy k Grazhdanskomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Scientific and practical commentary to the Civil Procedure Code of the Russian Federation]. Moscow, 2003.
8. Kozlov A.F. Sudebnoye predstavitel’s tvo i yego pravovaya reglamentatsiya v grazhdanskom protsesse [Judicial representation and its legal regulation in civil proceedings]. *Issues of the Effectiveness of Judicial Protection of Civil Rights*. Sverdlovsk, 2010, vol. 65, p. 15.
9. Shakaryan M.S. K voprosu o ponyatii i sostave lits, uchastvuyushchikh v dele [On the issue of the concept and composition of persons participating in the case]. *Proceedings of Universities*, Moscow, 1970, vol. 14.
10. Kolokolova E.Y. Advokat-predstavitel’ v rossiyskom grazhdanskom protsesse [Advocate-representative in Russian civil proceedings]. Saratov, 2005.
11. Sherstyuk V.M. Sudebnoye predstavitel’s tvo [Legal representation]. Moscow, 1984.
12. Doniyorov M. Sudda vakillik [Representation in court]. Tashkent, 2009, pp. 37–38.
13. Nurumov D.D., To’ychiyeva M.Q. O’zbekistonda davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko’rsatish faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal basis of providing free legal aid at the expense of the state in Uzbekistan]. *Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2023, p. 641.
14. Vorozhbit S. Elektronnye sredstva dokazyvaniya v grazhdanskom i arbitrazhnom protsesse [Electronic means of evidence in civil and arbitration proceedings]. St. Petersburg, 2011, pp. 205–206.
15. Pirmatov O.Sh. Peculiarities of procedural aspects of the application of Electronic Court Case Management System in the initiation of civil proceedings and preparation of the case for trial. *State and Law*, 2024, no. 5, pp. 169–174. ISSN 0132-0769. DOI: 10.31857/S1026945224050185

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.